

## PREPARE THE CLASSROOM FOR SMALL GROUP WORK

P. Z. Davronov

Professor of Samarkand Region

X.K. Khudoiberdieva

Teacher at the Samarkand Regional School of Public Health

### Annotation

The article describes the optimal options for forming small groups based on the placement of desks in the classroom and the placement of excellent, good, average and poor learners in order to ensure the effectiveness of education.

**Keywords:** education, classroom, east, north, south, west, teacher's desk, backup, desk, placement, seating, main purpose of education, excellent student, good learner, medium learner, poor learner, small groups, efficiency, optimization.

2020 yil 23 sentabrda kuchga kirgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berish, qobiliyatlarini rivojlantirish belgilab qo'yilgan. Prezidentimizning ta'limga yunaltirilgan barcha Farmon va Qarorlarida o'qituvchining nufuzi va ijtimoiy mavqei oshirish va ta'limda natijadorlikka erishish masalasiga alohida urg'u berilmoqda. Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" g'oyasi asosida "...sifatli ta'lim-tarbiya berishni yulga qo'yamiz"-dedi. Demak, biz pedagoglar oldimizda turgan asosiy vazifa jamiyat, davlat va oila oldida o'zining mas'uliyatini chuqur anglaydigan erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar insonlarni tarbiyalab berishdan iborat. Bunga ta'limni optimallashtirish orqali erishish maqsadga muvofiq. Shunda ta'lim beruvchi charchamay ishlaydi, o'qitish natijador bo'ladi.

Biz ta'limni optimallashtirish deganda o'qituvchining kam vaqt, kam mehnat, kam mablag sarflab, eng yuqori darajadagi ta'lim maqsadlariga erishishini tushunamiz.


Maqolada, optimallashtirishning tashkiliy ko'rinishlaridan biri bo'lgan, sinf xonasiga partalarni joylashtirish va ularga o'quvchilarni o'tqazishga doir bir uslubni bayon qilamiz.

Faraz qilamiz, sinfda 25 – 30 nafar o'quvchi bo'lsin. Bunday holda sinf xonasiga o'qituvchi stoli va o'quvchilar partalarni jadvaldagidek joylashtiriladi.

Agar sinfda 25 nafar o'quvchi bo'lsa, har birida 5 nafardan o'quvchisi bo'lgan, 5 ta kichik guruhda ishlash uchun 17 dona partalar talab etiladi. Ularning 15 tasida o'quvchilar o'tirishsa, qolgan 2 ta zaxira partadan, komanda boshlig'i va kichik guruhlarning 5 nafar sardorlari birgalikda o'tirib maslahatlashishda foydalanishadi. Agar sinfda 30 nafar o'quvchi bo'lsa, zaxira partalar soni 3 dona bo'ladi.

Kichik guruhlar partalari to'plami bilan sinfxonasi devorlari orasidagi masofa 1 m atrofida bo'lishi zarur. Bu joydan, takrorlash darslarini trening ko'rinishida o'tkazishda foydalaniladi.

Sinf xonasiga partalar va o'quvchilarni joylashtirish sxemasi .  
Sinf xonasining G'arbiy devori



Jadvalni tushunishga doir izoh: 1-zaxira parta, 2-zaxira parta. A'lochi o'quvchi. Yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchi. 1-o'rta o'zlashtiruvchi o'quvchi, 2-o'rta o'zlashtiruvchi o'quvchi. Sust o'zlashtiruvchi o'quvchi.

A'lochi va yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar, sinf xonasining sharqiy tomonidan qo'yilgan partada yonma-yon o'tirishadi. A'lochi o'quvchining to'g'risida, sinf xonasining shimoliy tomonidan qo'yilgan partada sust o'zlashtiruvchi o'quvchi o'tiradi.

Yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchining to'g'risida, sinf xonasining janubiy tomonidan qo'yilgan partada ikkita o'rta o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'tirishadi.

Sinf xonasining sharqiy, shimoliy va janubiy tomonlaridan o'zaro birlashtirilgan har uchta partalarga, besh nafardan o'quvchilarning bunday o'tirg'izilishi, a'lochi o'quvchining yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan hamkorlikda, sust o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydi. Xuddi shuningdek, yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchining a'lochi o'quvchi bilan maslahatlashib, ikkita o'rta o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan muvaffaqiyatli ishlashiga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda, sinfxonasiga partalarni bunday tartibda joylashtirish va ularga o'quvchilarni o'tirg'izish zamonaviy dasturlarni samarali tashkil etish, ularda axborot kommunikatsion texnologiyalar, interfaol usullardan o'rnida va me'yorida foydalanish, ta'limning bosh maqsadini amalga oshirishga o'zining ilobiy ta'sirini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, 2020-yil, 23-sentabrdagi O'PQ-637.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ylarga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xalq maorifi xodimlari bilan o'tkazgan selektor yig'ilishi bayoni. 23-avgust 2019 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va [lmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.
10. Ta'lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. - /Tuzuvchi mualliflar I.Eldashev, G.Karimova. -Toshkent, 2018.
11. Rahmatov M.A., Zaripov B.Z. Iste'dodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir. -Toshkent: "Zamin nashr", 2019.